

BETAKRORIMSAN, YAGONASAN, ONA VATANIM – O'ZBEKISTONIM!

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:5 (67066)  
2016-yil  
1-fevral

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## YURAKLARDA



## MADHI



«Kamalak yulduzlari – 2015»  
bolalar ijodiyoti festivalining  
respublika bosqichi g'olibi  
Arslonbek Hotamov haqida  
8-betda o'qiydiz.

## ORZULARI MUSHTARAK OPA-SINGILLAR



## EGIZAKLARNING EGIZ ZAFARLARI

Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilari Hasan va Husan To'liyevlar tahririyatimizda mehmon bo'lib, o'z mahoratlarini namoyish etishdi.

(7-bet)



– Oila a'zolarimizning eng sevimli mashg'uloti – kitob o'qish, – deyishadi poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabining o'quvchilari Mehribon va Nigina Jo'rayevalar.  
Ular bilan 4-sahifada tanishasiz.

# MEN ISTIQLOL FARZANDIMAN

Vatan haqida qancha gapirmaylik, qancha she'rlar bitmaylik, baribir kam. Vatan – kindik qonimiz to'kilgan joy. Uni bejiz onaga o'xshatib, «Ona Vatan» deb atamaydilar.

Vatan – mehr qo'rg'oni,  
lymon uning qalqoni.  
Er yigitlar Vatanning,  
Mard-u maydon posboni.

Ona Vatan ko'rkidir,  
Iftixori yigitlar!  
El boshiga ish tushsa,  
Xaloskori yigitlar!

Tohirbek  
**DILMURODOV**,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi  
43-umumta'lim  
maktabining  
5-«D» sinf o'quvchisi



Istiqlol tufayli bizlar uchun juda keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Ayniqsa, men kabi yoshlar bundan juda minnatdormiz. Nega deysizmi, mening imkoniyatim cheklangani uchun maktabga borib saboq ololmayman. Shunday bo'lsa-da, Davlatimiz e'tibori tufayli mehribon ustozlarim menga uyda saboq beryaptilar. Ayniqsa, bayram kunlarida alohida mehr-muhabbatni tuyaman. Buning uchun Yurtboshimizga katta rahmat aytgim keladi. Ona Vatanim, Istiqloling abadiy, osmoning hamisha musaffo bo'lsin!

Onamiz bag'rida qanday erkin katta bo'lsak, yurt bag'rida ham mana shunday hur, tinch va osuda ta'lim-tarbiya olaymiz. Uyimizni, oilamizni qanday asrasak, Vatanimizni ham shunday asrashimiz kerak. Biz o'z Vatanimizni sevamiz, u bilan faxrlanamiz. Shoir Iskandar Rahmon aytganidek, biz Vatanimizni qo'riqlaydigan mard, jasur o'g'lonlar bo'lishimiz kerak. Uni yomon ko'zlardan asrashimiz lozim.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 82-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan navbatdagi muloqot oldidan bizning-da hayajonimiz ularnikidan kam bo'lmadi. Chunki, tadbirga O'zbekiston xalq artisti, sevimli ayajonimiz Rixsi Ibrohimova ham taklif etilgan ekan.

## DAFTAR HOSHIYASIDAGI BEBAHO DURLAR

Tuman XTMFMTE bo'limi uslubchisi Ra'no Ortiqova, maktab rahbari Aziza Ja'farova, rahbar o'rinbosari Ne'mat

hikmatli iboralar o'quvchilar tomonidan yangraganda, Rixsi aya beixtiyor aytib yuborgan «tasanno» va «ofarin» kabi xitoblar o'quvchilarni to'liqlantirib yubordi. Sevimsan'atkorimizning yozuvchi bilan ijodiy muloqotlari, suratga olish jarayonidagi voqealar haqidagi xotiralari davra ishtirokchilariga o'z-gacha zavq



Mirzohidov hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zulxumor Po'latova tashabbusi bilan taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlarini badiiy adabiyot o'qish oyligi doirasida o'quvchilar tomonidan sevib mutolaa qilingani anjumanga sabab bo'ldi. Rixsi aya ijodkorning bir qancha asarlari asosida suratga olingan qator filmlarda onalar rolini maromiga yetkazib ijro etgan.

bag'ishladi. Tadbirni kuzatar ekanmiz, ajib hislar qalbimizni chulg'ab olganday edi. Anjumandan chiqqan o'quvchilar o'zlari



N. SULTONOV olgan suratlar

«O'tkir Hoshimov xotirasi o'quvchilar yodida» nomli bu tadbirga puxta hozirlik ko'rilgani o'quvchilar tomonidan namoyish etilgan dastlabki sahna ko'rinishlaridayoq namoyon bo'ldi. «Dunyoning ishlari», «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kabi asarlardagi purma'no

qiziqib o'qiyotgan badiiy kitoblarini bag'riga bosgancha kelib borishardi. Ertaga ularning ko'ngil olamida ma'naviyat gulshani g'unchalari qiyg'os ochilishi, shubhasiz. Yusuf ABDULLAYEV

## BUVIJONIM SANDIG'I...

Bolajonlar, uyingizda sandiq bor-a? Ayniqsa, buvijonlar bisotidagi buyumlarni birma-bir tomosha qilish hammaga yoqadi, shunday emasmi?

Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchilari «Buvijonim sandig'i – javohirlar bulog'i» deb nomlangan tadbirda buvijonlari bilan birga ana shunday qimmatbaho sovg'alarga boy sandiqni ochib ko'rishdi. Faqat bu sandiqda... qiz bolaning odobi, axloqi-yu, uning go'zal fazilatlariga haqidagi hikmatli so'zlar joy olgan edi... Bu tadbir qizlarning orastalik, pazandalik, chevarlik kabi fazilatlariga oshishida muhim omil bo'ldi.

7-«A» sinf o'quvchilaridan Robiya aktyorlar chiqishini e'tirof etdi. Rahmonova, Zulayho Temirova, Kamola Shuningdek, maktabda «Omon yurgin, Jo'rayeva, Sevara Sobirjonova, Nihola bolajon» deb nomlangan yana bir tadbir bo'lib

O'ktamova bu tadbirda faol qatnashib, buvijonlarning hamda yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'lishdi.

Ushbu ta'lim maskanining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulchehra opa Mutalovani maktabda katta-yu kichik birdek hurmat qiladi. Ustoz maktabda qator uchrashuvlar tashkil qilish barobarida, bilim maskanidagi san'atga oshufta qalblarni bir joyga jamlab, yosh aktyorlar guruhini tashkil qilgan.



Ular ishtirokida Pirimqul Qodirovning o'tdi. Yo'l qoidasini puxta o'rganish «Yulduzli tunlar» asaridan parcha maqsadida o'tkazilgan ushbu tadbirda sahnalashtirildi. Bolalarning san'atga bo'lgan o'quvchilar ko'cha harakati xavfsizligi, yo'ldan

o'tish, velosiped haydashda amal qilinadigan qoidalarni yana bir bor esga oldilar. Yo'l-transport hodisasi ro'y berganda birinchi yordam ko'rsatish haqida esa guruhlar tomonidan tayinlangan kichik hamsHIRALAR so'zlab berishdi.

Gulchehra opa aytganidek, turli soha vakillari bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazish yaxshi samara bermoqda. Bu tadbirlardan o'quvchilar olam-olam zavq olib, yanada yaxshi o'qishga harakat qilishlariga va albatta, kelgusida yurtga nafi tegadigan, komil inson bo'lib voyaga yetishlariga ishonamiz.



qiziqishlarini yanada orttirish maqsadida, Hilol Nasimov ushbu sahna ko'rinishi namoyishiga taklif etildi. Mohir rejissyor va aktyor bolalarning iqtidorini ko'rib, ulardan yaxshi

Ozoda TURSUNBOYEVA



**Shoirning bolaligi**

# «BOLALIK KUNLARIMDA...»

**rukning bugungi mehmoni – «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibi, O'zbekiston xalq shoiri Anvar OBIDJON.**

chiqishdan ham tap tortmasdim.

1-sinfga borganimda, sochi oqarib-roq qolgan oqsoq kishi hassasiga tayangancha bizni ochiq chehra bilan kutib olgani hamon yodimda. Birinchi ustozimiz bo'lgan Ahmadali Obidovni «mulla aka», deb chaqirardik. Ustoz og'ir-bosiq, mehribon inson edi.

Qishlog'imizdagi 800 o'rinni 13-maktab, men 6-sinfga o'tganimda qurib bitkazilgan. 8-sinfni tugatgunimcha shu yerda o'qidim. Bu davrda she'r

Taqdir meni qaylarga eltmasin, yuragim qishlog'imga bo'lgan o'tli sog'inchimdan quvvat olib, jo'sh urib turardi. Mening ajdodlarim ham taqdirini shu makonga bog'lab, kam bo'lishmadi. Bu yerda tug'ilib o'sganlar orasidan necha-necha ko'zga ko'ringan arboblal, taniqli mutaxassislar, noyob hunarmandlar, dovuqli adiblar, olimlar, xonandalar yetishib chiqqan. Dehqonlari va bog'bonlarining omilkorligi butun

O'zbekistonda tilga tushgan. Ulardan biri bo'lgan Anvar Obidjon esa, bolalar adabiyotiga xizmat qilishdek buyuk ne'matga musharraf bo'ldi. Bu esa menga hamisha quvvat bag'ishlaydi. Farzandlarimdan Bahromjon jurnalist, kelinim – Diloromxon o'qituvchi, Bahodir mirishkor dehqon, kelinim – Zumradxon tikuvchi, Bobur novvoy, kelinim – Nodiraxon ham tikuvchi, Botirjon kichik tabdikor, kelinim – Dildoraxon Yunusobod tumanidagi

– Yashash intilishlar-u kurashlardan, topishish-u yo'qotishlardan iboratdir. Shundan kelib chiqib doimo to'g'ri so'zni aytishga intilaman. Dadamning «Shoirlikni havas qilasanmi yo boshqa kasbnimi, eng avval, oila a'zolaring birligini, uying fayz-u tarovatini ta'minlashing shart», degan o'g'itlarini umrim mazmuniga aylantirib olganman. Hayotga bo'lgan muhabbatimning ortishida yaqinlarim bilan bog'liq ajoyib xotiralar muhim o'rin tutganini aytib o'tmoqchi edim.

Bahrom buvamning ikki-uch avlod narisidagi bobo-momolari Marg'ilonidan kelib, Oltiariqning Polosonida yashagan. Bobom bilim olishga intiluvchi, kamgap, o'ychan yigit bo'lgan ekan. Balog'atga yetganida, Sarviniso degan oqila qiz bilan turmush qurishgan. Ulardan Obidjon, Sobirjon, Shafolat, Madaminjon degan to'rt farzand dunyoga kelgan. Ulardan ikki nafari chechak kasalidan vafot etishgan. Buvim savodi baland bo'lmasa-da, didi o'ta nozik, pokiza ayol edi. 85 yil umr ko'rgan buvimning og'zidan biror marta achchiq so'z chiqqanini eshitmaganmiz.

Dadam arab, lotin, kirill imlolarida bemalol o'qib, yoza olardi. Buni bilgan Boyuzoq eshon degan kishi dadamni choyxonaga choy tashuvchi qilib oladi. Qo'l-oyog'i chaqqonligi, zehni o'tkirligini sezgach, keyinroq mirzalikka tayinlab, tarozibonlik sirlarini ham o'rgata boshlaydi. Dadam bilan Munisxon onamning birin-ketin Xolisxon, Anvarjon ya'ni kamina, Akramjon, Tohirjon, Zuhaxon, Homitjon, Avazbek, Dilmurod degan farzandlari tug'ilgan.

Bolaligimda ko'nglim juda bo'sh edi. Salga ta'sirlanib, ko'zimga yosh kelardi. Goho o'zimni botir ko'rsatishga urinardim. Ba'zan bunga astoydil berilib ketsam, qorong'uda yurishdan ham, eng baland daraxtlarga

# MO'TTIVOYMI YO MITTIVOY?!

yo'zishga berildim, badiiy kitoblarga mehrim ortdi. Kitoblarning aksariyati ertaklar, «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Ravshan va Zulxumor», «Kuntug'mish» singari xalq dostonlari edi. Navoiyga tishim o'tmas, Mashrab, Furqat, Muqimiy, Ogahiy, Maxtumquli, Boburlarni

ko'p mutolaa qilardim. Asarlari o'zbekchaga o'girilgan shoirlardan Yesenin, Geyne, Byorns nazmini behad xush ko'radim. Orada «O'tkan kunlar», «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari» kabi

kitoblar, «Ko'r musiqachi», «Mumu», Mopassan va Lermontov hikoyalari, Shota Rustaveli dostoni, Shekspir pyesalari qo'limga tushib qolardi. She'rilarimning siyohi qurimasdanoq, «G'uncha» jurnaliga peshma-pesh yo'llash odatim bor edi.

O'sha paytlarda adabiyot maydoniga endigina kirib kelayotgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi shoirning kitoblarini qidirib topib, o'qirdim.

Serbola va serchiqim o'ila mizga yordamlashish uchun turli: hisobchi, tarozibon, traktorchi, usta, kon ishchisi, kutubxonachi kabi yumushlarni bajarishimga to'g'ri kelgan.



ZUBAYDA olgan surat

**1953-yili 1-sinfga borganman. Jajji bolakay yolg'izoyoq torko'chadan quy mahalla tomon odimlab boryapman-u o'qish qanaqa ekan, deb o'ylanaman, xolos. Borib ko'rsam, maktab deganlari ayvonining ustunlari chiri boshlagan, eski masjidagi tuproqtom bino ekan.**

**Ona yurtim Oltiariq tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 3-sinfida o'qiydigan nabiram Fotimaxon juda ziyrak, kitobxon, gazetxon. Opalari O'g'ilo, Gulixon bilan «Tong yulduzi» gazetasi, «G'uncha», «Gulxan» jurnallariga doimiy obuna bo'lishadi. Biror asarim bu nashrlarda chop etilsa, o'sha nabiram hammadan avval qo'ng'iroq qilib, suyunchilaydi.**

55-oilaviy poliklinikada hamshira, Bunyod fermer, kelinim – Odinaxon-u turmush o'rtog'im Karomatxon uy bekasi.

17 nabira, 2 chevarani yurt koriga yaraydigan insonlar qilib tarbiyalashda o'z hissamizni qo'shaymiz.

O'zbekistonning ertangi kun egalarining tinch-osoyshta yurtda sog'-salomat katta bo'layotganidan ko'nglim xotirjam, o'zim ijod qilishdan charchamayman. Yaqinda «Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan?» nomli qissamni yozib tugatdim. Nasib bo'lsa, yaqin kunlarda kitobxonlarga taqdim etish niyatidaman.

**Tilagim, yurtimiz onalari o'z farzandlarini tinch osmon ostida bag'riga bosib, katta qilsinlar. Farzandlari el-u yurtga, ota-onasiga faqat rahmat olib kelishsin. Kitobga oshno bo'lgan o'quvchiga esa shuni eslatib qo'ymoqchiman: qay kitobni qo'lga olmag, uni qunt bilan mutolaa qilishga, qahramonlarining har bir harakatini diqqat bilan kuzatishga, umumiy mazmundan ayri-ayri xulosalar chiqarishga kuchingiz yetganicha urinib ko'ring. Qisqasi, o'qidingizmi, fikrlang! Qahramonlarning xatti-harakatidan tegishli va to'g'ri xulosalar chiqaring.**

# TA'UM-TARBIYA DA MATBUOTNING O'RNI

Unda malaka oshirayotgan boshlang'ich sinf o'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida «Ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishda pedagog va matbuot hamkorligi» mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Rahimboy Jumaniyozov olib bordi. Bo'lib o'tgan jonli muloqotda boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiya sifatini oshirishning dolzarb vazifalari, bola tarbiyasida matbuotning ahamiyati, ta'limdagi muammo va yechimlar kabi mavzularda fikr almashildi. Tinglovchilar tomonidan berilgan savollarga jurnalistlar batafsil, atroflicha javob berishdi.

**Kamola Xoldorova, Toshkent viloyatining Qibray tumani vakilasi:**  
– Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, gazetaning rang-barang rnknlari ostida berilayotgan maqolalar, ingliz tili saboqlari bizga ma'qul bo'lmoqda. Shu o'rinda istardikki, respublika nashriyotlarida bolalar uchun chop etilgan yangi asarlardan parchalar ham berib borilsa, yaxshi bo'lardi.

**Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 272-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilari Nilufar**

**Primqulova (2-«A» sinfi) va Dilorom Mo'minova (1-«V» sinfi):**

– Biz opa-singil bir maktabda ustozlik qilamiz. Bugungi tadibrda biz amaliyotchi o'qituvchilar sifatida ishtirok etmoqdamiz. Rahbarligimizdagi o'quvchilarning 70 foizi bu yil «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishdi. Sahifalarida e'lon qilinayotgan materiallardan sinfdan tashqari o'qish jarayonida keng foydalanyapmiz. Kelgusi yilda barcha o'quvchilarimizni sevimli gazetamizga 100 foiz obuna qildirish niyatidamiz.

**Gulnora Mirfayozova, Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi 48-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi:**

– Gazetada tarixiy obidalar rasmi va ular haqida batafsil ma'lumotlar bersangiz.



O'quvchilarning respublikamizdagi ko'plab tarixiy obidalar, qadamjola haqidagi tasavvurlari kengayar edi.

Ma'lum bo'lishicha, mazkur maskanda bunday tadbirlar yil bo'yi davom etar ekan. Bu esa o'z navbatda, ustozlarning bir-biri bilan fikr almashish imkonini beradi. Ularning takliflari esa gazetamizning rang-barang bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda ular bilan hamkorligimizni doimiy ravishda bo'lishi haqida kelishib oldik.

**Dilorom HOTAMOVA, Jamoliddin ABDULLAYEV**



# O'n besh daqiqalik DARS

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida ochiq darslar, davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlr, tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.



Navbatdagi tadbirga yosh va iste'dodli aktrisa Nargiza Abdullayeva

Tadbirda mehmondan «15 daqiqalik

tashrif buyurib, o'zining hayoti va ijodi, o'ynagan rollari haqida o'quvchilarga gapirib berdi. So'ng bolalarni qiziqtirgan savollarga javob berib, qo'shiq va raqslari bilan yig'ilganlarni xushnud etdi.

dars o'tish imkoni berilsa, qaysi fandan dars o'tib berardingiz?» – deb so'ralganda, aktrisa, dars o'tish murakkab vazifa ekanligi, buni hamma ham uddalay olmasligini aytib, o'zi bilmagan holda 15 daqiqa ma'naviyat darsini o'tib berdi. O'quvchilarga hamma narsaga faqatgina bilim va mehnat orqali erishish mumkinligini, ibo, hayo, kiyinish odobi, muomala madaniyatiga amal qilish kerakligini ta'kidlab, ularni hamisha mehrl bo'lishga chorladi. Qiziqarli

kecha barchaga manzur bo'ldi. San'atni sevgan kishidan yomonlik chiqmaydi, deyishadi. Har bir o'quvchi barchani hayratga soladigan qobiliyatga ega. Kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, san'atga bo'lgan mehri tufayli chin inson bo'lib kamol topadi. Shunday ekan, o'quvchilarning barkamol bo'lib voyaga yetishlarida bunday kechalarning o'ri beqiyos.

**Muzaffar AHMEDOV**

# NASRIY ASARLAR KO'PROQ BERILSA...

**Men sevimli gazetamni muntazam o'qib boraman. Tengdoshlarim ijodini ham qiziqib kuzataman.**

O'zim esa achandan buyon she'r, qatra va hikoyalar yozaman. Bu sohada ustozlarim Umida Egamberdiyeva va Mohira Rasulova katta yordam berishmoqda. «Tong yulduzi» nashri mening doimiy yordamchim. Ingliz tilini yaxshi bilaman. Hozirda ingliz bolalar yozuvchilari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanmoqdaman. Tarjimalarim respublika, viloyat, tuman gazeta va jurnallarida chop etilgan.

2016-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldim. Gazeta sahifalarida nasriy asarlardan ko'proq parchalar berib borasiz, degan umiddaman.

**Gulira'no HAMIDULLAYEVA, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi**

**Gazetxon o'quvchilarimizdan bo'lgan opa-singil Mehribon va Nigina Jo'rayevalar poytaxtimizning Yak-kasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabida a'lo baholarga o'qishadi. Har tomonlama barkamol, iqtidorli bu qizlar maktabdagi barcha tadbirlarda faolliklari, o'qituvchilari va tengdoshlarining e'tiboriga sazovor bo'lganlari uchun ular bilan yaqindan tanishgimiz keldi.**

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nigora opa A'zamxo'jayeva rahbarlik qilayotgan 6-«A» sinfida 40 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ulardan «Bilimlar bellashuvi»da yaxshi natijalarga erishganlari ko'p. Nigina ham ona tili va adabiyot fanidan o'tkazilgan bellashuvning tuman bosqichida ustozining ishonchini oqlashga harakat qildi.

Onasi Dilnoza opaning ona tili va adabiyot muallimi bo'lgani sababmi, unda she'riyatga, badiiy ijodga havas erta uyg'ondi. O'zining aytishicha, «O'zbekiston bog'lari» deb nomlangan ilk she'rini 10 yoshligida yozgan ekan.

Tarix fani o'qituvchisi Maqsuda Olloberganova o'zi rahbarlik qilayotgan 7-«B» sinf o'quvchilari haqida gapirar

# Orzulari mushtarak opa-singillar



**NIGINA**

ekan, Niginaning opasi Mehribon Jo'rayeva haqida iliq fikrlar bildirdi. U ayniqsa, kimyo, fizika, zoologiya fanlariga qiziqar ekan. Og'ir, bosiq fe'l-atvorga ega bo'lgan Mehribon ismi jismiga monand.

Oilada to'ng'ich qiz bo'lgani uchun onasining yaqin ko'makchisi. Kenjatoy, ikki yashar ukasi Jasurning xarxashalari-yu, to'polonlariga qaramay, doim uning yonida parvona.

Uyda sevimli bobojonlari O'tkir aka tomonidan yig'ilgan kitoblardan tashkil topgan katta kutubxonaga bor ekan.

– Oilada hammamiz kitob o'qishni juda yaxshi ko'ramiz, – deydi Nigina to'lqinlanib. – Bobojonimizning shaxsiy ibratini, pand-nasihatlari sabab, bo'sh qoldik deguncha kutubxonaga kiramiz. Men yaqinda ardoqli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning «Shirin qovunlar mamlakati», «Sehrgarlar jangi», «Besh bolali yigitcha», Rustam



**MEHRIBON**

Ochilning «Farzandlarimga», Mengliboy Murodovning «Mening bola qalbim» kabi kitoblarni o'qib chiqdim. Opam Mehribon esa ayni chog'da buyuk bobomiz Alisher Navoiyning «Xamsa» asarini zavq bilan mutolaa qilmoqda.

Har ikki qiz chet tillarni puxta o'rganish bilan birga, sportning suzish, badiiy gimnastika, shaxmat-shashka turlari bilan muntazam shug'ullanishadi.

Nigina kelgusida jarroh bo'lishni orzu qilsa, Mehribonning niyati tish shifokori bo'lish. Oq xalat kiyib, insonlar dardiga darmon bo'lishdek sharaffli kasb, kishidan tinimsiz izlanish, ko'p o'qib-o'rganishni talab etishini ular yaxshi bilishadi. Shuning uchun hozirdanoq ezgu niyatlari yo'lida harakatni boshlab yuborishgan. Orzulari mushtarak bo'lgan opa-singillarga bu borada omad yor bo'lishini istaymiz.

**Dilorom MUHAMMADJON qizi**

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 8-«B» sinfidagi ingliz tilidan «All men are poets at heart», ya'ni «Hamma ham qalban shoir» mavzusida ochiq dars tashkillashtirildi.

Darsda ingliz shoirlari Robert Frost, Ralf Valdo Emerson va Jeyms Fentonning ijod namunalari o'quvchilar tomonidan taqdim etildi. Ayniqsa, Sevara Salimova Robert Frastning «Budir oddiy haqiqat»

# SHE'RXONLIK DARSI

she'rini baland ovozda shunday o'qidiki, dars tahliliga kirgan ingliz tili o'qituvchilari ham unga jo'r bo'lishdi. Shu payt muallima Huriniso Ostonova barchani hayratga solgan she'rni o'zbek tiliga tarjima qilganini bildirdi va o'qib berdi.

Sabina O'ktamova va Murod Qahhorov «Wind» – «Shamol» she'rlarini intervyu usulidan foydalangan holda ijro etishdi. Marjona Yunusova ham ingliz tilida she'rlar o'qidi. Darsda deyarli barcha o'quvchilar faol ishtirok etishdi. O'zbek adabiyoti bilan bog'langan holda tashkillashtirilgan darsning mustahkamlash

qismida muallima O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning «O'zbekning ayollari» she'rining ingliz tilidagi tarjimasini havola etdi.

*They don't sleep at night,  
Uzbek all wife women.  
It's combed moon light,  
They were made for kid.*

«Muzyorar», «Intervyu», «So'z ichida so'z» kabi usullar asosida olib borilgan dars qizg'in taassurotlarga boy bo'ldi.

NURBEK

## Lesson 72

### THE ANT AND DRAGONFLY (Chumoli va chigirtka)



Once upon a time in warmly days of summer dragonfly which wanted to show how he pleased from its fate, jumped there and here and played having yelled as he can. At that moment he saw a small ant which was going with heavy corn. Seeing this, dragonfly laughed at him:

– Hey, foolish ant, why are you making difficult for yourself? Can't you play as me?

– Why not, I can but I must ready for winter. I have to store foods and I

give you some advise to be ready to winter – answered ant continuing his way.

Dragonfly roar with laughter and said:

– It's summer now. There are too much time till winter. Why I must hurt my soul. No, I don't want to do like this.

Ant worked during summer, didn't give attention to dragonfly's sentences. But dragonfly spent his holiday with playing and singing.


At least, came winter. Dragonfly hardly endured to cold but without eating he became ill. This time ant was happy, eating his food. Then dragonfly understood that «doing a thing thinking tomorrow is the best work».

Translated by Dildora MAHMUDOVA,  
the pupil of school number 244, 8th form in Yashnobod district

### TALKING ABOUT SPORT (Sport haqida suhbat)

Dear pupils learn by heart the new words and expressions. Make a dialogue using these sentences with your friend.

- I enjoy doing sports – Men sport bilan shug'ullanishni yoqtiraman.
- Do you go in for sports? – Siz sport bilan shug'ullanasizmi?
- I prefer to watch sports – Men sport o'yinlarini tomosha qilishni afzal ko'raman.
- I like winter sports most of all – Menga qishki sport o'yinlari ko'proq yoqadi.
- What teams are playing today? – Bugun qaysi jamoalar o'ynaydi?



6. What team do you «root» for? – Qaysi jamoaga siz muxlislik qilyapsiz?

7. My favourite team is «Bunyodkor» – Mening sevimli jamoam bu «Bunyodkor».

8. My favorite sportsman is Odil Ahmedov – Mening sevimli sportchim bu Odil Ahmedov.

9. Let's play football – Keling, futbol o'ynaymiz.

10. Can I rent a bike? – Velosipedni ijaraga olsam bo'ladimi?

11. Who won? – Kim yutdi?

12. When does the match begin? – O'yin qachon boshlanadi?

13. What's the score? – Hisob necha?

14. Where is the stadium? – Stadion qayerda?

SHAHNOZA chizgan rasmlar

Dono AHMEDOVA

### INSTRUMENTS OF DRESSMAKER (Chevarning ish qurollari)

Write and learn by heart the words which dressmaker uses.



Sewing machine

Zulfiya NURXO'JAYEVA

### TEST

Check your knowledge and choose the right answer.

- I go to ... every day.  
a) cinema b) museum c) school
- ... is cooking a meal now.  
a) My mother b) My brother c) I
- My sister and I went to see our ... yesterday.  
a) grandmother b) theatre c) street
- Sobir ... dinner at the moment.  
a) is b) has c) is having
- I sometimes ... up at 6 o'clock.  
a) got b) get c) gets
- We ... a fantastic film last week.  
a) see b) seen c) saw

### WORD SEARCH

Find eleven numbers from the box.


s	e	v	e	n	t	e	e	n
i	h	j	k	l	w	k	z	c
x	w	f	t	w	e	l	v	e
t	q	w	h	s	n	x	z	i
y	v	s	i	x	t	y	b	g
n	f	o	r	t	y	k	e	h
i	i	b	t	m	t	n	l	t
n	f	d	y	f	h	f	e	y
e	t	g	j	q	r	w	v	t
r	y	d	s	n	e	b	e	w
e	i	g	h	t	e	e	n	o

### MAKE QUESTIONS

(Savollarni to'g'ri tuzing)

- pet/What/do/want/you?
- pet's/is/name/What/your?
- your/What/pet/color/is?
- pet/you/look after/your/Do?
- you/ food/give/What/do/it?
- clean/keep/you/pet/Do/your?

Prepared by Dinora SHAKIROVA



**Olqor DAMIN**

**SOG'LOM BOLA**

Qo'shiqlar aytgan bola,  
Raqsqa tushgan bola.  
Rasmlar chizgan bola –  
Sog'lom bola bo'ladi!

Yugurib yurgan bola,  
Chiroyli kulgan bola.  
Sho'xliklar qilgan bola –  
Sog'lom bola bo'ladi!

Gul, ko'chat ekkan bola,  
Qo'zichoq boqqan bola.  
Barchaga yoqqan bola –  
Polvon bola bo'ladi!



**BO'RON**

(Ertakcha)

Men bo'ronman, bo'ronman,  
Uvillayman tun bo'yi.  
Men qudratli bo'ronman,  
Qahraton qishning kuyi.

Bu qo'shiqdan uyg'onar,  
Ertami, kechmi bahor.  
«Qo'shiq, hatto, tog'larni –  
Eritar», degan gap bor.

Uyqu yoki charchashga,  
Begonaman, bo'ronman.  
Bo'ron bo'ling, bolalar,  
Ko'rpalarga o'ranmang!



**O'roq SAID,  
Qashqadaryo viloyati**

**AZIZDIR ONA, BOLA**

O'zgacha aylanib dunyo mehvari:  
Tog'lar oltin bo'lsa, dengizlar kumush.  
Zaminda qulf ursa turfa gul bari,  
Barcha to'kinlikdan bo'lsak ham sarxush.  
– Qaysisi e'zozli? – desa donolar,  
Degayman: – Azizdir bola, onalar!

Sahroning qumlari aylansa zarga,  
Quyoshdan yog'lsa yoqut halqalar.  
Boylklar taxlansa har qarich yerga,  
Yulduzlar sochishsa oltin tangalar.  
– Qaysisi e'zozli? – desa donolar,  
Degayman: – Azizdir bola, onalar!

Onasin osmondan yuqori qo'yan,  
Muhammad, Naqshband Ka'bam! –  
deb suyg'an.

Buxoriy, Motrudiy mehrini tuygan,  
Farzandlar shuhratin olamga yo'yan.  
– Bular kim? – so'rsalar o'sha donolar,  
Degayman: – Eng baxtli ona, bolalar!

Yurtboshim quchib der bolani, jonim,  
Shulardan zo'ri yo'q, kezsam Vatanim.  
Boshda toj – onalar taxti-ravonim,  
Ikkisin kuylayman yurakdan doim.  
– Kimning joyi jannat? – desa donolar,  
O'roq deydi: – Har gal bola, onalar!



**Valentina OSEYEVA**

**Tashrif**  
(Hikoya)

Valya bugun darsga kelmadi.  
Dugonalari unikiga Musyani  
yuborishdi.

– Unga nima bo'lganini borib  
bilib kel. Balkim og'rib qolgandir  
yoki biron yordam kerakdir?..

Musya dugonasinikiga bor-  
ganida, u o'rnida lunji bog'langan  
holda yotardi.

– Voy, Valechka! – dedi Musya  
stulga o'tirarkan. – Menimcha,  
sening milklaring shamollab  
qolgan bo'lsa kerak. O'tgan yoz  
menda ham xuddi shunday  
bo'lgandi. Ishonsang, rosa  
qiynalgan edim, o'shanda. Ustiga-  
ustak buvim ham ketib qolgandi,  
oyim esa aksiga olib ishda edi.

– Mening oyim ham ishdalar,  
– dedi Valya og'rigan yuzini  
ushlarkan. – Musya, shu desang,  
dori bilan og'zimni chayishim  
kerak edi-da.

– Ha, menga ham o'shanda

shifokorlar og'zimni chayib  
turishimni tuyinlashgan edi. Har  
gal og'zimni chayganimga,  
foydasini sezardim. Ayniqsa,  
tuzalishimga issiq suv solingan  
rezina katta yordam bergan.

Valya birdan jonlandi-da,  
boshini qimirlatdi:

– Ha, ha grelka... Musya,  
oshxonamizda choynak turuvdi...  
– Ovozi chiqayotgan choy-  
nakmi? Yo'q, bu yomg'ir bo'lsa  
kerak.

Musya o'rnidan sapchib turdi-  
da, oyna oldiga yugurib bordi.

– Ha, xuddi shunday, yomg'ir  
yog'ayotgan ekan. Yaxshiyamki,  
kalish kiyib kelibman! Axir  
bunday yomg'irda shamollab  
qolish hech gap emas!

U dahlizga chopib bordi-da,  
shosha-pisha kalishini oyog'iga  
kiydi. Keyin esa Valya yotgan  
xonaga boshini suqib, baland



**ORZU**

Har tong uyg'onganimga,  
Juda xursand bo'laman.  
Bir kun el-u yurt uchun,  
Izlanishlar qilaman.

Dunyolarni kezaman,  
Ko'p ilmlar olaman.  
Vaqti kelib, albatta,  
Yaxshi inson bo'laman.

**Sevinch MO'MINOVA,  
Toshkent viloyati, Bekobod  
shahridagi 2-umumta'lim  
maktabining 4-«G» sinf  
o'quvchisi**



**SINGILCHAM**

Asal singlim, oppog'im,  
Shirintoyim munchog'im.  
Orzulari bir olam,  
Mening nurlil chirog'im.

Yuzlaridan yog'ar nur,  
Ko'zlari charos va dur.  
Qo'llari juda yumshoq,  
Menga o'xshar qizaloq.  
**Laylo EGAMBERDIYEVA,  
Surxondaryo viloyati, Uzun  
tumanidagi 1-umumta'lim  
maktabining 6-sinf o'quvchisi**



**FERMER BOBOM**

Urug' qadab dalada,  
Ter to'kib ishlaydilar.  
Mehnat qilib hech qachon,  
Charchashni bilmaydilar.

Charchamasdan hech qachon,  
Tinmasdan mehnat qilar.  
Qachon qarang dalada,  
Ishga bosh bo'lib yurar.

Dehqon bobom mehribon,  
El-u yurtini o'ylaydi.  
Tuproq'ini yashnatib,  
Baxtimizni kuylaydi.

**Muxlisa NARZULLAYEVA,  
Toshkent shahri, Sergeli  
tumanidagi 322-umumta'lim  
maktabining 6-sinf o'quvchisi**



ovozda dedi:

– Tezroq tuzalib ket, dugonajon!  
Men yana kelaman! Albatta,  
kelaman! Xavotir olma!

Valya og'ir xo'rsindi, muzlab  
qolgan grelkani qo'llari bilan  
paypaslab, onasini kutishdan  
boshqa chorasi yo'qligini tushundi.

Musya maktabga borganida  
dugonalari uni yana so'roqqa  
tutishdi:

– Ha, nima bo'ldi? Valya nega

kelmabdi? Yordam kerak ekanmi,  
unga?

– Aytarlik hech nima yo'q.  
Uning ham xuddi men kabi  
milklari shamollab qolibdi, – dedi  
Musya bamaylixotir. – U boshqa  
hech narsa demadi. Valyaga faqat  
issiq suv solingan rezina va og'zini  
dori bilan chayib turish yordam  
beriyapti ekan...

**Rus tilidan Zohida  
SHAROBIDDIN qizi tarjimasini**



# EGIZAKLARNING EGIZ ZAFARLARI

**Bugungi kunda yurtimiz o'quvchilari sportning barcha turlari bo'yicha xalqaro musobaqalarda sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritib kelishmoqda. Salmoqli natijalarga erishishda qoraqalpog yoshlarining ham hisssasi katta bo'lmoqda.**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi egizak sportchilar bilan tanishtirmoqchimiz. Tumandagi 54-umumta'lim maktabining 7-sinfida tahsil olayotgan Hasan va Husan To'liyevlarni bugun ko'pchilik yaxshi taniydi. Ular yetti yoshidan buyon sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Hasan hozirda akrobatika, jonglyor, gimnastika, yoga, mashqlarini maromiga yetkazib bajara oladi. Husan esa dor ustida o'yinlar ko'rsatishni qoyillatadi, u hatto o'tgan yilning avgust oyida

poytaxtga kelib, «Jayhun» guruhida ish o'rganib sirk truppassi bilan tomoshalarda ishtirok etdi.

Egizak sportchilar shu kunga qadar anchagina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishdi. Tuman maktablari o'rtasida o'tkazilgan «Umid nihollari – 2016» sport musobaqalarida ikkovlon ham birinchi o'rnlarni egallashdi. Ustozlari Rashid Sultonov, Murod Otajonov hamda Qodir aka, To'ra ota dorbozlar shogirdlari yutug'idan mamnun.

Tinib-

tinchimagan aka-ukalar sinfdoshlari Otabekni ham sport mashg'ulotlariga boshlab borishdi. Otabek hozirda futbol to'garaging faol a'zosi.

Biz ulardan, «Kim kuchli: Hasanmi yo Husan?» deb so'raganimizda, Hasan shoshib: «Husandan zo'r fikrlar ko'proq chiqadi, u kuchli», deb javob berdi. Husan esa: «Hasandan ko'p jihatlarni o'rganaman, menimcha u kuchli», dedi kamtarlik bilan.

Biz esa o'z xulosamizda qoldik: Hasan-Husan o'qishda ham, sportda ham bir-biridan qolishmaydi. Chunki ular hamisha izlanishda.

**Feruz Abdusamad qizi**



## ROMITAN FUTBOL MAKTABI

**Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 42-futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida bugungi kunda 120 nafar sportchi-yoshlar mahoratini oshirishmoqda.**



Maktab-internatiga futbol va milliy kurash bo'yicha iqtidorga ega o'quvchilar imtihon asosida tanlab olindi.

Sport maktabi tarbiyalanuvchilari o'tgan yilni qator g'alabalar bilan yakunlashdi. Jumladan, oktyabr oyida viloyatda o'tkazilgan 10-14 yoshdagilar o'rtasida tashkil-lashtirilgan mini futbol musobaqasida tuman terma jamoasi 2-o'rinni egallab, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Olot tumanida 2000-2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasida milliy kurash bo'yicha o'tkazilgan

O'zbekiston chempionatida o'quvchilardan Aslbek Nozimov 77 kg vazn toifasida 1-, xuddi shu vaznda Umid Karimov 3-o'rinni egallashdi.

**Shukrullo G'ULOM**

**O'zbekiston yoshlari har jabhada ilg'or, ularning erishayotgan yutuqlari mamlakatimizda kelajak avlod uchun ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar samarasidir.**

## KOLLEJ BIRINCHILIGI O'TKAZILDI

Respublikamiz ta'lim muassasalarida shunday o'quvchilar borki, ular tengdoshlari orasida yangilik yaratishga, o'zaro munosabatlarda mehr uyg'otishga, bilim olishdan zavqlanishga o'rgatadi. Toshkent bank kollejida ham ijodkor o'quvchilar ko'plab topiladi.

Yaqinda «Kamolot» Yo'Il yetakchisi Sherzod Olimov, sport va ekologiya yo'nalishi sardori Malohat Saidmansurova hamda 1-bosqich 506-guruh o'quvchisi Shahzod Niyozxo'jayev hamkorligida shahka bo'yicha kollej birinchiligi o'tkazildi. Uch kun davom etgan musobaqada

26 nafar havaskor sportchilar ishtirok etishdi. Final bosqichi yakunlanib, g'oliblar aniqlandi. 1-o'rin «Buxgalleriya hisobi» yo'nalishining 1-bosqich o'quvchisi Oybek Rasulovga nasib etdi. «Bank ishi» yo'nalishining 2-bosqich o'quvchisi Sohiba Komilova 2-, «Moliya» yo'nalishi 1-bosqichida tahsil olayotgan Maqsud Hasanov 3-o'rinni egalladi.

Yosh tashkilotchilar «Sog'lom ona va bola yili» munosabati bilan fevral oyida shaxmat-shahka, stol tennisi bo'yicha kollej tumirini o'tkazishni rejalashtirishgan.

**Ulug'bek SAIDOV**



# ORZULAR USHALGAN MASKAN

**Yurtimizda qish fasli hukmronlik qilayotganiga qaramay, shahar-u qishloqlarimizda bunyodkorlik ishlari aslo susaygani yo'q. Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanida zamonaviy bolalar va o'smirlar sport maktabi binosining rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirilishi, so'zimiz isbotidir.**

Shuni quvonch bilan aytish lozimki, Istiqlol Sindorovlar, Nodirbek Abdusattorov, dzyudo yillarida mamlakatimizda ertamiz egalari bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempioni

bo'lmish yosh avlodning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun qator ishlar amalga oshirildi. Bugun xalqimiz, 2015-yilda Osiyoning «Eng yaxshi yosh futbolchisi» nomini qo'lga kiritgan Dostonbek Hamdamov, shaxmat bo'yicha Osiyo va jahon chempionlari – aka-uka Javohir va Islombek




Diyora Keldiyorova, o'smirlar o'rasidagi Olimpiada o'yinlari g'olibi, boks bo'yicha kattalar o'rtasida Osiyo chempioni Bektemir Meliqo'ziyev kabi chinakam iste'dod egalari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. E'tiborlisi, ular yurtimizdagi yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, katta musobaqalarda Vatanimiz sharafini himoya qilishdek yuksak baxtga musharraf bo'lgan.

Mazkur sport maktabida ham endilikda ana shunday shijoatli yoshlarning 500 nafari sportning futbol, basketbol, voleybol, suzish, taekvando, erkin va yunon-rum kurashi kabi turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'ldilar.

**S. TURSINOV**

# YURAKLARDA VATAN MADHI



*Farg'onalik tengdoshingiz Arslonbek Vatan haqida qo'shiq kuylaganida, qarsaklar tinmadi. Chunki qo'shiq dildan chiqib, dillarga yetib borgan edi.*

Arslonbek Hotamov Dang'ara tumanidagi 39-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf hamda Qo'qon shahridagi 6-Bolalar musiqa va san'at maktabi estrada-vokal yo'nalishining 5-sinf o'quvchisi.

Arslonbekning san'atga qiziqishi avvalo, mehribon buvijonisi Xayrixon ayaning shirin tilaklar bilan aytgan allalaridan va milliy ohangga yo'g'rilgan

qo'shiqlaridan boshlangan. Undagi iqtidorni o'z vaqtida anglagan otasi o'g'lini musiqa va san'at maktabiga olib bordi. Ustozi Alisher G'afurovning yosh shogirdi bilan qilgan sa'y-harakatlari o'z samarasini berdi.

Arslonbek maktabda tashkil etiladigan tadbirlarda, shuningdek, Dang'ara tumani va Qo'qon shahridagi ko'rik-tanlovlarda ishtirok etdi. Uning «O'zbekistonim», «Assalom, ey Vatan», «Ustozim», «Dunyo maftun» nomli qo'shiqlari viloyat va Respublika ko'rik-tanlovlarida munosib baholalanib, 2015-yilda o'tkazilgan «Yuraklarda Vatan madhi» ko'rik-tanlovining oliy mukofotini olishiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, 2015-yil davomida Respublika va xalqaro tanlov va musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlarni rag'batlantiruvchi

«Iftixor – 2015» yoshlar mukofotining «Yilning eng yoqimli ovoz sohibi» nominatsiyasi g'olibligini qo'lga kiritdi. «Kamalak yulduzlari – 2015» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida «Vokal» yo'nalishida ishtirok etdi va Diplom bilan taqdirlandi.

Arslonbekning orzulari ulkan. Eng avvalo, u ona Vatanga munosib farzand bo'lish, ustozlari, ota-onasi ishonchini oqlash, o'zining dilbar qo'shiqlari bilan go'zal diyorimizni, tinchlik va do'stlikni kuylashdan iboratdir. Ana, eshiting, Arslonbek kuylayapti:

*Ismingni tilimda, dilimda kuylab,  
Sening noming bilan dunyoga bo'ylab,  
Bag'ringda shodumon yuribman o'ynab,  
Samosan men sening cho'ploning Vatan,  
Mangu kuylagaydir dostoning Vatan!*

**Nozima QUDRAT qizi**

## XANDLAR



To'polonchi Soyibni burchakka turg'azib qo'yishdi. Shunda u alam bilan uy burchagiga qararkan, chuqur xo'rsindi:

– Katta bo'lib quruvchi bo'lsam, hamma xonalarni burchaksiz quraman.

Qorovul bog'ga so'roqsiz kirgan bolaga dedi:

– Hoy bola! Nega birovning bog'idagi mevani teryapsan?

– Bitta olma uzilib tushgan ekan, shuni joyiga qayta ilib qo'ymoqchi edim, amaki.



Ona tili o'qituvchisi o'quvchiga topshiriq berdi:

– «Karimga dadasi futbol to'pi olib keldi», degan gapning egasini top-chi?!

– Agar akalari tortib olishmasa, egasi Karim.

**Shodmon OTABEK**

## TEST

### ONA TILI FANIDAN

1. Nutq tovushlari ona tili fanining qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A) leksikologiyada;
- B) fonetikada;
- S) orfoepiyada;
- D) morfemikada;

2. Shudring so'zi tarkibida qanday undosh til tovushlari mavjud?

- A) 3 ta til oldi, 1 ta orqa undoshlari;
- B) 2 ta til orqa, 3 ta oldi undoshlari;
- S) 1 ta til orqa, 4 ta til oldi undoshlari;
- D) 2 ta til orqa, 2 ta til oldi undoshlari;

3. 1) barcha; 2) texnika; 3) direksiya; 4) kimdir; 5) kitob.

Berilgan so'zlarning qaysi birida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi?

- A) 1, 2, 4;
- B) 2, 3, 4;
- S) 1, 2, 3;
- D) 1, 3, 5;

**Shavkat KAZAKBAYEV**

## Bilashmi?!

Tadqiqotchilarning aniqlashicha, ayni damda


Sankt-Peterburgning Saltikov-Shedrin nomidagi kutubxonasida saqlanayotgan fasohat mulkingning sultoni Alisher Navoiyning ilk she'riy to'plami bundan besh asr ilgari allomaning shaxsiy kutubxonasida saqlab kelingan. Oltin suvi bilan ipak qog'ozda bitilgan, har bir sahifasi naqshlar bilan bezab chiqilgan ushbu noyob durdona Sharqning mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilganini har kim ham bilavermasa kerak?!

Barcha sevib mutolaa qiladigan «Robinzon Kruzo» asari gazetada parchalar berib boshirish shaklida nashr qilingan birinchi asar hisoblanadi. Asar 1719-yilning oktyabridan boshlab, 1720-yilning oktyabriga qadar, ya'ni bir yil davomida chop etilib turgan.

**Zarifa JUMANOVA,**

Toshkent tijorat va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



- 1. Bo'lak. 2. Parranda. 3. Son.
- 4. Bosh. 5. Ho'lmeva. 6. Samo. 7. O'zbek sporti. 8. Mos. 9. Milliy mato. 10. Bemor. 11. Tilla.
- 12. O'lik til. 13. Suv jonivori.

**Fayzulla ABDULLAYEV**  
tuzdi

**1-fevral 2016**

## Devonda qilgan!



## KOKOSLI SHIRINLIK

Aziz qizlarjon! Tavsiya etayotgan pishirig'imizni tayyorlab ko'rsangiz, dasturxonning yana bir kokosli shirinlik bilan boyiydi. Buning uchun 5 ta tuxum, 1 piyola shakar, 1 piyola un, 1 banka quyultirilgan sut va kokos qirindisi kerak bo'ladi.

**Tayyorlanishi:** 5 dona tuxumni sarig'idan ajratib, oqini 1 piyola shakar bilan ko'pirtiramiz. U qotganidan keyin 5 dona tuxum sarig'i 1 piyola un bilan aralashtirib, biskvit tayyorlanadi.

Qolipda yoki gaz patnisida 20 daqiqa davomida pishirib olinadi. U sarg'ish rangga kirib pishganidan so'ng, bo'lib-bo'lib chiqiladi. Yana gaz patnisiga terib, past olvoga qo'yiladi. U qattiq bo'ladi va yana qo'lda mayda urvoq qilinadi. 1 banka quyultirilgan sut bilan aralashtiriladi. Yong'oqdek dumaloqchalar yasab, kokos sepiladi. Pishirig'imizning mazasi rafaello shirinligini eslatadi.

**Yoqimli ishtahal**

**NARGIZA tayyorladi**

Bosh muharrir  
**Feruz ADILOVA**

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

**Naybatchi muharrir**  
Dilorom HOTAMOVA  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

**Manzili:**  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel./faks:** 244-63-08  
**Tel./faks:** (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi – 48 835**  
**Buyurtma – S 5037**